



O'ZBEKISTONDA PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHNING MUAMMO VA YECHIMLARI

RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK ANJUMANI



26-27-aprel

Toshkent - 2024

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 24-martdagi “2024-yilda qo‘shimcha o‘tkaziladigan xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar to‘g‘risida”gi 76-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida 2024-yilning 26-27-aprel kunlari “O‘zbekistonda pedagog kadrlarni tayyorlashning muammo va yechimlari” mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjumani o‘tkaziladi.

Anjuman tashkilotchisi: “**Profi University**”

Anjuman quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tashkil etiladi:

1-yo‘nalish – Maktabgacha va boshlang‘ich talim sifat va samadorligini oshirishning zamonaviy tendensiyalari.

2-yo‘nalish – Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda innovatsion hamda psixologik yondashuvlar.

3-yo‘nalish – Tillarni o‘qitishda innovatsion metodikalarning ahamiyati.

4-yo‘nalish – Aniq va ijtimoiy fanlarning pedagog kadrlar tayyorlash jarayonidagi o‘rni.

Mualliflar uchun ma’lumotlar

Anjumanda oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, doktorantlar, magistrantlar, yosh olimlar, tadqiqotchi-izlanuvchilar, talaba-yoshlar, umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilari hamda ta’lim sohasida faoliyat olib boruvchi pedagoglar ishtirok etishlari mumkin.

Anjumanning rasmiy tili: o‘zbek, ingliz va rus tillari.

- Maqolalar matnlari MS WORD matn muharriri yordamida Times New Roman shriftida, 14 o‘lchamda, 1,5 intervalda, yuqori va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm joy qoldirilgan holda tayyorlanishi lozim.
- Matn sarlavhasi katta harflar bilan qoraytirib (“**jiirniy**”) yozilishi kerak, undan keyin muallif(lar)ning ismi, sharifi va familiyasi, ilmiy darajasi, unvoni va ish joyi ko‘rsatiladi, so‘ng matni keltirilishi zarur.
- Maqolaning ingliz, rus va o‘zbek tillarida annotatsiyasi (2-3 jumlada), tayanch tushunchalar esa matn izchilligida rasmiylashtiriladi. Jadvallar va chizmalarning raqamlari, yozuvlari ust qismiga joylashtiriladi.
- Havolalar sahifa tagida beriladi, unda adabiyotning muallifi, nomlanishi, nashriyoti, nashr yili, fikr olingan beti asoslangan sahifasi ko‘rsatiladi hamda o‘rnatilgan tinish belgilari tizimiga amal qilinadi.
- Maqolalar hajmi 3-5 sahifadan oshmagan holda bir nusxada va elektron variantda tashkiliy qo‘mitaga yetkazilishi lozim.

Maqolalar ilmiy saviyasi bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tomonidan tanlab olinadi. Qo‘yilgan talablarga javob bermaydigan maqolalar chop etilmaydi va qo‘lyozmasi muallif(lar)ga qaytarilmaydi.

Maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va dalillarning haqqoniyligi uchun muallif(lar) mas’uldirlar.

Anjumanning ilmiy maqolalari to‘plami elektron va bosma shaklda chop etiladi.

Anjumanda ishtirok etish **bepul**.

Maqolalar **2024-yil 20-aprel**ga qadar (+998-33-686-01-10) telegrami orqali qabul qilinadi.

Tashkiliy qo‘mita manzili:

“PROFI UNIVERSITY”

Toshkent sh., Bektemir t., X.Boyqaro ko‘chasi, 117-uy

Tel: 78 777-11-11

www.profiuniversity.uz E-mail: info@profiuniversity.uz

Mas‘ul: Xolmatova Dildora Baxromovna

https://t.me/Profi_ilmiy_bulim (33) 686-01-10

Axborot xati va anjuman haqidagi qo‘shimcha ma’lumotlar universitetning www.profiuniversity.uz sayti va <https://t.me/profiuniversity> telegram kanalida berilgan.

TASHKILIY QO‘MITA

NAMUNA:

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARNING O'RNI

Muallif F.I.SH.

Tashkilot yoki ta'lim muassasasi nomi

Annotatsiya: matn

Kalit so'zlar: matn

Maqola matni.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.
- 2.
- 3.